

---

## ZAMONAVIY PEDAGOGIKANING FUNKSIYALARI

**Boltaboyev Abdug'ani Mamirovich**

*Farg'ona davlat universiteti Harbiy ta'lim fakulteti o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqola zamonaviy pedagogika fanining funksiyalari tahliliga bag'ishlangan. Shuningdek, maqolada bugungi kunda jamiyatningyoshlarga qo'yayotgan talablari, ular egallashi kerak bo'lgan ko'nikmalar, o'quvchi faoliyatining tavsifi hamda zamonaviy ta'lim siyosati haqida fikr yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *zamonaviy ta'lim siyosati, o'quvchi faoliyati, pedagogika, funktsiya, ko'nikmalar, intellekt, pedagogik tamoyillar.*

## FUNCTIONS OF MODERN PEDAGOGY

**Abstract:** *This article is devoted to the analysis of the functions of modern pedagogical science. Also, the article provides an idea of the requirements of society today for young people, the skills they should possess, a description of the activities of the reader, as well as modern educational policy.*

**Keywords:** *modern educational policy, reader activity, pedagogy, function, skills, intellect, pedagogical principles.*

Pedagogika – bu yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish va uni rivojlantirishga yo'naltirilgan fan. Bu o'qituvchining o'quvchini shakllantirish va rivojlantirish maqsadida unga ta'sir ko'rsatish san'atidir. Shuning uchun ham pedagogika shaxsni mujassam rivojlantirishga xizmat qiladigan fandır. Pedagogika fanining asosiy vazifasi – o'quvchiga ta'lim muassasasida o'qish jarayonida takomillashish imkoniyatini yaratishdan iborat. Buning uchun birinchi navbatda o'quvchilarni asosli tarzda jadal, tezkor, iqtisodiy jihatdan samarali ta'lim olishga o'rgatish hamda o'qituvchilarning kasbiy layoqatlari doirasida fikrlash va harakat qilish ko'nikmalarini shakllantirish lozim.

Butun dunyo miqyosida pedagogik tizimning vujudga kelishi har doim ijtimoiy-iqtisodiy zaruriyat va jamiyatning ijtimoiy-siyosiy buyurtmasiga asoslangan holda amalga oshgan.

Mazkur tizimning asosiy vazifasi jamiyatga barkamol shaxsni yetishtirib berishdan iborat. Pedagogika har doim jamiyat a'zosi qanday bo'lishi kerak? Degan savolga javob izlaydi. Har bir muayyan davrda barkamol shaxsni shakllantirishning o'ziga xos parametrlari va mezonlari vujudga kelgan.

XXI asr bozor munosabatlari va kuchli raqobat doirasida rivojlanishning yetakchi omili sifatida birinchi navbatda nafaqat moddiy qulayliklar va sharoitlar, balki bilim, tajriba, ko'nikma, salomatlik, jismoniy rivojlanish darajasiga ega bo'lishni ham taqozo qilmoqda.

Har qanday rivojlangan davlatda inson quvvatlari raqobatning yetakchi omili hisoblanadi. Chunki inson o'zining intellektual quvvatlari va layoqati yordamida globallashtirish sharoitlariga samarali moslashadi. Mamlakatning iqtisodiy qudratini rivojlantirishda raqobatbardoshlikka asoslangan yutuqlar muhim o'rin egallaydi va aholi farovonligini oshiradi. Mamlakatning insoniy quvvatlarini ko'p jihatdan ta'lim-tarbiya tizimi, uzluksiz ta'limning rivojlanish darajasi, o'qituvchilarning kasbiy kompetentligi belgilaydi. Shuning

uchun ham mustaqil O‘zbekiston Respublikasida ta‘lim davlat siyosatida ustuvor ahamiyat kasb etadi. Chunki bizda davlatning ta‘lim sohasidagi siyosati faol, mustaqil, maqsadga intiluvchi hamda mas‘uliyatli shaxsni shakllantirishga yo‘naltirilgan. Mazkur shaxs jadal rivojlanayotgan dunyoda turli-tuman hayotiy vazifalarni bajarishga safarbar etilgan. Ta‘lim tizimi mehnat bozorining vaziyatli, istiqbolga yo‘naltirilgan ehtiyojlarini hisobga olish hamda mahsuldor mehnat qilish layoqati va teng sherikchilik ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilishi lozim.

Bugungi kunda shaxsning kasbiy jihatdan ahamiyatli bo‘lgan sifatlaridan biri keng ko‘lamli bilim olish va uning to‘liqligini ta‘minlash mezonlarini tatbiq etish emas, balki o‘z bilimlarini mustaqil holda to‘ldirish, kasbiy vazifalar qo‘yish va ularni to‘g‘ri hal qilishdan iborat. Bugungi kunda jamiyatga quyidagi ko‘nikmalarga ega bo‘lgan yoshlar nihoyatda zarurdir:

- o‘zgaruvchan hayotiy vaziyatlarga qat‘iy moslashuvchi, o‘z bilimlarini amaliyotga mustaqil tarzda qo‘llay oladigan, o‘zgaruvchan sharoitlarda qulay yo‘l topadigan;
- mustaqil tarzda tanqidiy fikrlaydigan, yangi g‘oyalarni ilgari suradigan, ijodiy tafakkurga ega bo‘lgan;
- axborotlar bilan savodli tarzda ishlay oladigan, ularni izlash, tahlil qilish, tizimlashtirish, umumlashtirish, xulosalar chiqarish va amaliy takliflar berish ko‘nikmasiga ega bo‘lgan;
- turli ijtimoiy guruhlar bilan muloqotga kirisha olish, aloqa o‘rnatish, turli sohalarda xabardor bo‘lgan holda ishlay olish, muayyan vaziyatlarda to‘g‘ri yo‘l topa oladigan;
- o‘zining shaxsiy axloqi, intellekti hamda madaniy darajasini rivojlantirish ustida mustaqil izlanadigan shaxslarni tayyorlash kabilar.

Bugungi kunga kelib an‘anaviy ta‘lim tizimi bilan mahsuldor, shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim tizimi orasida muayyan ziddiyatlar kuzatilmoqda. O‘quvchilarga tayyor bilimlar va harakatlanish uchun zarur algoritmlarni taqdim etish ularda ijodiy layoqatlarni shakllantirishni ta‘minlay olmaydi. Pedagogika fani taraqqiyoti mavjud holatini tahlil etish shuni ko‘rsatadiki, maktab o‘quvchilari ijodiy rivojlanishining shakllari va mexanizmlari yetarlicha ishlab chiqilmagan. Chunki ular yangi tipdagi intellektni, tez o‘zgaruvchan muhitga moslashuvchi yangicha tafakkur tarziga ega bo‘lgan shaxsni shakllantirishga to‘liq yo‘naltirilmagan. Ta‘lim-tarbiyaning an‘anaviy texnologiyalari ta‘limning Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ko‘zda tutilgan strategik maqsad va vazifalarini, ayniqsa, yangicha fikrlaydigan tafakkur egasi, ijtimoiy faol, ma‘naviy boyliklarni o‘zlashtirgan, ijodiy tarzda rivojlanuvchi shaxsni shakllantirish imkoniyatiga yetarlicha ega emas.

An‘anaviy ta‘lim tizimining tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, illyustrativ tushuntirish hamda reproduktiv metodlar bola shaxsini individuallashtirish va rivojlantirish mexanizmlarini o‘zida mujassamlashtirmagan. Bu metodlar o‘quvchining ichki olami bilan yetarlicha aloqa o‘rnatish imkonini bermaydi.

Shuning uchun ham mazkur metod asosida ta‘lim berish jaryonida o‘quvchining ko‘plab savolari va ehtiyojlari e‘tibordan chetda qolib, buning natijasida unda individual layoqatlar va ijodiy ko‘nikmalarning vujudga kelishida to‘siqlar hosil bo‘ladi.

Ta‘limning mazkur paradigmasi o‘quvchilarga tayyor bilimlarni taqdim etish, namuna asosida ishlash, induktiv mantiqqa asoslanish, ya‘ni xususiydan umumiyga qarab borish, mexanik xotirani rivojlantirish, o‘quv materialini verbal tushunish, o‘qituvchi bayon qilgan

ma'lumotlarni reproduktiv tarzda qabul qilishga asoslangan. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, o'qituvchi tomonidan taqdim qilingan ma'lumotlar o'quvchining bilimi hisoblanmaydi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, o'quvchi darsda o'qituvchi taqdim etgan ma'lumotlarning 80% ini usha kuniyoq esidan chiqaradi. O'quvchilar dolzarbligidan qat'iy nazar 20% ma'lumotlarnigina xotiralarida saqlab qoladilar.

O'quvchi faoliyatining yuqorida keltirilgan tavsifi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

a) mustaqil tarzda o'z oldiga maqsad qo'yish ko'nikmasi shakllanmaydi, ular oldiga faqat o'qituvchi maqsad qo'yadi;

b) o'quvchining faoliyati tashqaridan turib rejalashtiriladi, bu esa unga ortiqcha tashvish orttiradi;

v) o'quvchining faoliyati faqatgina o'qituvchi tomonidan tahlil qilinadi va baholanadi, uning o'ziga bunday imkoniyat qoldirilmaydi.

Avtoritar ta'lim berish natijasida o'quvchilar dalillangan bilimlarni o'zlashtiradilar, biroq bu jarayonda ularda mustaqil tanqidiy tafakkur shakllanmaydi. Shuningdek, muammoli hamda tahliliy xarakterdagi vazifalarni yechish ko'nikmasi tarkib topmaydi. Ular yangi vazifalarni qo'yish, ularni yechishning optimal va nostandart yo'llarini tatbiq etish, o'zlashtirgan bilimlarini amaliyotda ijodiy qo'llash ko'nikmasiga ega bo'la olmaydilar.

Bugungi kunga kelib ta'limdagi bunday holat bir qadar tashvishlidir. Shaxsga yo'naltirilgan yangi tipdagi ta'limni keng joriy qilish uchun birinchi navbatda axborot berishga asoslangan ta'lim paradigmasini fikrlashga yo'naltirilgan paradigma bilan almashtirish lozim. Faqat shu yo'l bilangina ta'lim jarayoni markaziga o'quvchi shaxsini qo'yish, pedagogik jarayonning barcha sub'ektlarini faollashtirishga erishish mumkin. Shu tarzda o'quvchilarda qanday qilib muallif bo'lish layoqati, tahliliy tafakkur, bag'rikenglik, muloqotga kirisha olish kabi shaxsiy sifatlar tarkib topadi. Shaxsning bunday o'ziga xos jihatlari faoliyatning faol sub'ekti sifatida faqatgina shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida harakat qilishi natijasida tarkib toptirilishi mumkin. Mazkur o'quv jarayonining asosiy maqsadi – har bir o'quvchining ijodiy layoqatlari va imkoniyatlari rivojlanishini ta'minlashdan iborat. Buning uchun o'qituvchining o'zi ijodiy faoliyat tajribasi va mualliflik maktabiga ega bo'lishi kerak.

Barkamol shaxsni rivojlantirish muammosini hal qilishda biz quyidagi asosiy tamoyillarga tayanamiz, ular:

- yuqori darajadagi intellekt, ta'lim va bilimlarning istiqbolga yo'naltirilganligi;
- insonning qobiliyatlarini ochish va turli-tuman ta'limiy ehtiyojlarni qondirish;
- yuksak darajadagi ma'naviyat, madaniyat va boy dunyoqarashni shakllantirish;
- ta'limning milliy yo'naltirilganligi, uning xalq an'analari, tarixi hamda urfodatlar bilan uzviy bog'liqligi;
- ta'lim-tarbiya birligi va ajralmasligi kabilar.

Zamonaviy ta'lim siyosati XXI asr talablariga javob berishi, yangi tipdagi intellektning shakllanishi, yangicha tafakkur qilish va layoqatni namoyon etish, tez o'zgaradigan atrof-muhitga moslashish ko'nikmasiga ega bo'lgan shaxsni shakllantirishga qaratilishi lozim. Buning uchun o'quvchilar ijtimoiy, iqtisodiy sohalar, yangi texnologiyalarga oid bilimlar, axborotlar bilan qurollantirilishlari kerak.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Mukhamedov, G. I., Khodjamkulov, U. N., Shofkorov, A. M., & Makhmudov, K. S. (2020). Pedagogical education cluster: content and form. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 01 (81), 250-257.
2. Ходжамкулов, У. Н. (2020). ПЕДАГОГИК ТАЪЛИМ ИННОВАЦИОН КЛАСТЕРИ (ЎЗБЕКИСТОН ТАЪЛИМ ТИЗИМИ МИСОЛИДА). *Academic research in educational sciences*, (4).
3. Mardonov, S., Khodjamkulov, U., Botirova, S., & Shermatova, U. (2020). The Need to Educate Young People with the Spirit of Patriotism in the Context of Globalization. *Journal of Critical Reviews*, 7(12), 166-169.
4. Khodjamkulov, U., Botirova, S., Shofkorov, A., & Abdirimova, I. (2020). Bases of Organizing Cooperation between Educational Institutions through Clusters (on the Example of the Education System of Uzbekistan). *Journal of Critical Reviews*, 7(12), 243-247.
5. Makhmudov, K. (2021). LEARNING A FOREIGN LANGUAGE AND THE LANGUAGE TOURISM EXPERIENCE. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 2(7).